XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING

# QARORI

2023 - yil 20 - aprel VI-68-47-11-160-K/23 Toshloq tumani hokimligi

## Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 6-fevraldan 7-aprelga qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i v.v.b. J.Qurbonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ishchi guruh xulosalariga asosan, xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, eng ko'p ovoz olgan hamda "Ochiq byudjet" axborot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan takliflar "g'olib" deb topilsin.

**2.** Mazkur qaror bilan quyidagilar:

- Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha,

-“Manzilliy ro‘yhat” 1-ilovaga muvofiq;

-Jihozlash tadbirlari bo‘yicha tovar (xizmatlar) reestrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman byudjeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo‘yilsin.

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-apreldagi “Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qaroriga asosan, jihozlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishning oxirgi muddati joriy yilning **iyul oyi** hamda qurilish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirishning oxirgi muddati **avgust oyi** belgilab qo‘yilsin.

**3.** Tasdiqlangan Manzilliy ro‘yxat asosida:

-Tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i v.v.b (J.Qurbonov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (Sh.Muminov) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlasin.

**4.**Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (R.Mamajonov) va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i v.v.b (J.Qurbonov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minlasin.

**5.**Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning qonuniyligiga Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i v.v.b (J.Qurbonov) hamda ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.|

**6.** Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari K.Umarov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo’yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **A.Djurabayev**

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2023 yil 20 apreldagi
VI-68-47-11-160-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Toshloq tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2023-yil 1-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarnri moliyalashtirish bo‘yicha tavsiyaviy

# MANZILLI RO‘YXAT

*(mln.so’mda)*

| № | G‘olib taklif ma’lumotlari | | | | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Xaqiqatda ajratilgan mablag‘ | Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Taklif ID raqami | Taklif turkumi | Qisqacha mazmuni | Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi) | Amalga oshiriladigan tadbir turi | To‘plagan ovozlari soni | | | |
| | | | | | | 84 997 | 15 185 | 15 185 | |
| 1 | 00145924011 | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasiga qo‘shmcha ma’muriy bino qurish | Toshloq tumani Shodlik MFY | Qurilish-ta’mirlash | 8659 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 2 | 00112161011 | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Quyi Yakkatut MFYda joylashgan 54-OP binosini rekonstruksiya qilish | Toshloq tumani Quyi Yakkatut MFY | Qurilish-ta’mirlash | 8390 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | 0016513011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumanidagi 11-sonli maktabini joriy ta’mirlash, o‘quvchilarga sport bilan shug‘ullanishlari va sog‘lom avlod shakillanishi | Toshloq tumani Yangiyul MFY | Qurilish-ta’mirlash | 7790 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 4 | 00140112011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tuman 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga sun’iy qoplamali usti yopiq mini stadion, yuvinish xanasi qurish. | Toshloq tumani Furqat MFY | Qurilish-ta’mirlash | 7584 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 5 | 00136177011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Farg'ona viloyati Toshloq tumani Obisiyo MFY xududiga 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filialini qurish | Toshloq tumani Obisiyo MFY | Qurilish-ta’mirlash | 7523 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 3<br>6 | 00118003011 | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani Jarqishloq MFYda joylashgan Jarqishloq OShP binosini rekonstruksiya qilish | Toshloq tumani Jorqishloq MFY | Qurilish-ta’mirlash | 7504 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 7 | 0016566011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 28-umumiy o‘rta talim maktabiga ko‘shimcha 4 xonadan iborat ko‘shimcha bino qurish | Toshloq tumani Yakkovut MFY | Qurilish-ta’mirlash | 7375 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 8 | 00132692011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tuman 42-sonli maktabning moddiy texnika bazasini rivojlantirish o‘quv jihozlar bilan ta’minlash. O‘quvchilarni zamonaviy texnika vositalarida sifatli ta’lim olishlarini shakillantirish | Toshloq tumani Yuqoriqishloq MFY | Xarid qilish | 7305 | 690 | 690 | Toshloq tuman maktabgacha ta’lim va maktab bo‘limi |
| 9 | 00139618011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabini joriy ta’mirlash | Toshloq tumani Tog‘lik MFY | Qurilish-ta’mirlash | 5841 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 | 00125092011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 32 - umumiy o'rta ta'lim maktabiga 2 xonadan iborat qo'shimcha bino qurish | Toshloq tumani Besarang MFY | Qurilish-ta’mirlash | 5473 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 11 | 129009011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 29-umumta’lim maktabining moddiy texnika bazasini rivojlantirish | Toshloq tumani Naymanbo‘ston MFY | Xarid qilish | 3807 | 500 | 500 | Toshloq tuman maktabgacha ta’lim va maktab bo‘limi |
| 12 | 00128035011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani Teraktagi MFYda joylashgan 49-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 4 xonali qo'shimcha bino qurish | Toshloq tumani Teraktagi MFY | Qurilish-ta’mirlash | 3650 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 13 | 00133538011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 40-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga qo‘shimcha 4 ta sinf xonasidan iborat bino qurish | Toshloq tumani Yuqoriqishloq MFY | Qurilish-ta’mirlash | 2087 | 1200 | 1200 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |
| 14 | 00144686011 | Boshqa ta’lim muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Toshloq tumani 2-sonli kasb-hunar maktabining amalyot xonalarini rekonstruksiya qilish | Toshloq tumani Varzak MFY | Qurilish-ta’mirlash | 2009 | 795 | 795 | Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS) |

Xalq deputatlari Toshloq tuman
Kengashining
2023 yil 20 apreldagi
VI-68-47-11-160-K/23-son
qaroriga
2-ilova

## Toshloq tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoniga joylashtirilgan ID 00129009011 Loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) Reestri

| **T/r** | **Jihoz nomi** | **Miqdori** *(dona)* |
|---|---|---|
| **1** | Parta | 163 |
| **2** | Kiyim shkaf | 20 |
| **3** | Kitob javoni | 20 |
| **4** | Oshxona stol stuli | 25 |
| **5** | O'qituvchilar xonasi uchun stol stul 30 kishilik | 1 |
| **6** | Rahbar stol stuli 1 dona kreslo bilan | 3 |
| **7** | Elektron doska | 4 |
| **8** | Yozuv doskasi 2 tomonlama | 10 |
| **9** | Divan kreslo | 1 |
| **10** | Kutubhona uchun kitob javoni | 10 |
| **11** | Kutubhona uchun parta | 10 |
| **12** | Yarim yumshoq stul | 200 |

## Toshloq tumani bo‘yicha o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoniga joylashtirilgan ID 00132692011 Loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) Reestri

| **T/r** | Jihoz nomi | Miqdori *(dona)* |
|---|---|---|
| **1** | Parta | 198 |
| **2** | Kiyim shkaf | 20 |
| **3** | Kitob javoni | 20 |
| **4** | Oshxona stol stuli | 25 |
| **5** | O'qituvchilar xonasi uchun stol stul 30 kishilik | 1 |

| | | |
|---|---|---|
| **6** | Rahbar stol stuli 1 dona kreslo bilan | 3 |
| **7** | Elektron doska | 7 |
| **8** | Yozuv doskasi 2 tomonlama | 10 |
| **9** | Divan kreslo | 1 |
| **10** | Kutubhona uchun kitob javoni | 10 |
| **11** | Kutubhona uchun parta | 10 |
| **12** | Yarim yumshoq stul | 200 |